

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra)

5



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

6

23
aksiyadorlik
jamiyati

133
unitar
korxona

324
boshqalar

5 252
oilaviy korxona

7 384
xususiy korxona

11 017
mas'uliyati cheklangan
jamiyat

24 133

tijorat korxonalarini

Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida, birlikda)

7



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2021- yil yanvar-avgust oylarida, umumiyl sonidagi ulushi, foizda)



2021- yil yanvar-avgust oylarida 3 968 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 137 ta, xususiy korxonalar – 712 ta, oilaviy korxonalar – 976 ta, muassasalar – 66 ta va boshqalar – 77 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 5 733 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 915 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 252 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 806 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 976 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 395 taga yoki 3,5 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, 11 564 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 509 taga yoki 127,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 017 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 232 taga yoki 125,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 137 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 609 taga yoki 1,4 martaga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, 538 tani tashkil etib, ulardan 515 tasi yoki 95,7 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 122 taga yoki 131,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 113 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-avgust oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati
cheklangan jamiyatlar soni**
(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

11




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	4 352	5 473	7 150	8 785	11 017
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	343	597	730	1 130	1 590
Sanoat	708	870	1 173	1 378	1 744
Qurilish	722	908	1 293	1 490	1 749
Savdo	1 352	1 615	2 151	2 718	3 508
Tashish va saqlash	480	516	574	625	641
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	174	202	276	345	402
Axborot va aloqa	72	78	97	107	133
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	36	60	88	98	152
Boshqa turlar	465	627	768	894	1 098

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	62	116	300	393	515
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10	28	82	98	114
Sanoat	34	45	80	108	133
Qurilish	1	5	15	21	37
Savdo	7	23	81	118	172
Tashish va saqlash	4	5	6	7	8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	1	14	17	22
Axborot va aloqa	1	1	2	2	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	1	3	4	8
Boshqa turlar	4	7	17	18	20

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	515	145	370
Termiz sh.	272	33	239
tumanlar:			
Oltinsoy	7	6	1
Angor	21	5	16
Bandixon	1	-	1
Boysun	8	6	2
Muzrabot	14	6	8
Denov	16	8	8
Jarqo'rg'on	17	10	7
Qumqo'rg'on	12	6	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	19	10	9
Termiz	48	20	28
Uzun	37	19	18
Sherobod	18	8	10
Sho'rchi	15	7	8

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,4 %), Denov (11,7 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (6,8 %), Qumqo'rg'on (6,7 %), Termiz (6,6 %), Sherobod (6,5 %), Uzun (5,3 %), Sariosiyo (5,1 %), Qiziriq (4,9 %), Angor (4,8 %), Boysun (4,7 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon tumanlarida (1,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (20,1 %), Denov (11,1 %), Sherobod (8,0 %), Jarqo'rg'on (7,5 %), Sho'rchi (7,3 %), Qumqo'rg'on (6,1 %), Uzun (5,5 %), Termiz (5,4 %), Sariosiyo (5,1 %), Angor (5,0 %), Muzrabot (4,6 %), Boysun (4,4 %), Qiziriq (4,2 %), Bandixon (3,3 %) va Oltinsoy (2,4 %) ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,2 %), Denov (9,3 %), Termiz (9,2 %), Jarqo'rg'on (7,4 %), Sherobod (6,2 %), Boysun (5,3 %), Sho'rchi (5,2 %), Qumqo'rg'on (4,9 %), Qiziriq (4,9 %), Angor (4,7 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,6 %) va Bandixon (2,0 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)



2021- yil yanvar-avgust oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Denov (12,0 %), Termiz sh. (11,4 %), Uzun (10,7 %), Sariosiyo (9,9 %), Sherobod (7,5 %), Jarqo'rg'on (7,0 %), Qumqo'rg'on (6,1 %), Sho'rchi (5,6 %), Angor (5,2 %), Muzrabot (5,2 %), Qiziriq (4,2 %), Boysun (4,2 %), Bandixon (4,2 %), Oltinsoy (3,5 %) va Termiz (3,3 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for RSS, Bayroq, Gerb, Madhiya, Shaxsiy kabinet, and social media icons. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the title, there are links for O'zbek, Rossijskij, English, ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUROJAATLAR, KONTAKTLAR, and Qidirish. A search bar is present at the top right. The left sidebar lists "RASMIY STATISTIKA" categories: El'on qilish taqimisi, Metama'lumotlar, Makroko'rsatkichlar, Milliy hisoblar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. The central search interface has a dropdown menu for "Xizmatlar ro'yxati" containing options like Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Uslubly materiallar, Statistik klassifikatsiyalar, Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. Below this is a form for entering a code and a "Qidiruv" button. The right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" including Aholini ro'yxtatga olish-2022, Harakatlar strategiyasi, Press-rezizlar, Choraklik natijalar, Nashriar – statistika haqida, Uslubly materiallar, and Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**